



Mehrangiz Narzullayeva

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" yo'nalishi 2-bosqichi talabasi

Axadjon Mamadaliyev

*Ilmiy rahbar: O'ZDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrası dotsenti, Turon Fanlar Akademiyasi
faxriy professori*

Annotatsiya: *Har bir millatning o'ziga xos qadriyatlari bo'lib, ular xalqning madaniyati va ma'naviyati o'zagi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy cholg'ularimiz esa ana shunday bebaho qadriyatlardan biri sifatida xalqimizning boy musiqa me'rosini targ'ib qilishda, madaniy an'analarini asrab avaylashda va keng targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, ma'naviy yuksaklik va estetik did ruhida tarbiyalashda ulkan zamin yaratadi.*

Kalit so'zlari: *ansambl, chang, Axmad Odilov, millat, repertuar, milliy musiqa, ohang, ma'naviyat, san'atkor.*

"Ansambl" so'zi fransuzcha "ensemble"-so'zidan olingan bo'lib, birgalikda ma'nosini bildiradi. O'zbek musiqa madaniyati rivojida o'zbek xalq cholg'u ansambllari tuzildi. Shu boisdan 1920-yillardan boshlab an'anaviy ijrochilik ansambllari va turli milliy musiqa to'garaklari tashkil etila boshladi. Jumladan, Marg'ilon milliy ansambl, Andijon milliy ansambl.

Bu ansambllar dasturi xalq kuylaridan tashqari bastakorlar tomonidan yozilgan asarlar o'sha davrlar ijtimoiy qo'shiqlaridan ham tashkil topgan. Yana misol tariqasida, taniqli hofiz Shorahim Shoumarov 1918-yili "Namuna" maktabi qoshida tashkil etgan musiqiy to'garakni aytib o'tish darkor, chunki bu to'garak. Keyinchalik Toshkent musiqa texnikumining ochilishiga sabab bo'lgan. 20-asrning 20-yillarida esa taniqli xalq sozandasi, mashhur doirachi Usta Olim Komilov Marg'ilon o'quv yurtlari va tashkilotlarida bir necha musiqiy to'garaklar tashkil etadi va bir necha bor chekka qishloqlarda konsert dasturlarini namoyoish etgan. 1923-yili T.Jalilov rahbarligi ostida xalq cholg'u kuylarini ijro etadigan "Milliy musiqa to'garagi" tashkil etiladi va uning tarkibiga o'zgarishlar kiritilib o'zbek xalq cholg'ularidan tashqari –fleyta, goboy va boshqa simfonik orkestr cholg'ularidan tuzilgan aralash ansambllar ham faoliyat yuritgan. Xuddi shunday milliy musiqiy to'garaklar zahirida milliy musiqiy ansambllarimiz takomillashdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu milliy to'garaklarimiz paydo bo'lishida usta hofiz, san'atkor musiqachi ustozlarimiz Matyusuf Xarratov, Shorahim Shoumarov kabi ustozlarimizning xizmatlari tahsinga loyiq. Shu bilan birga ustoz Shorahim Shoumarov 1918-yili "Sanoyi Nafisa" nomli 1-kasaba uyushmasini tuzadi va bu kasaba uyuhmasi shahardagi jamiyki san'atkorlarni huquqlarini himoya qilish va musiqiy san'atni xalq orasida targ'ibot qilish kabi muhim vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib oladi va buni uddasidan chiqadi. Uning rahbarligida tuzilgan ansamblida ko'plab san'at ustalari va ularning shogirdlari o'zlarining beqiyos xizmatlarini qo'shishgan, xalq xizmatida bo'lganlar.



Yosh havaskor san'atkorlar uchun haqiqiy musiqa maktabi hisoblangan ustoz Shorahim Shoumarovning "Qizil choyxonada joylashgan ansambli va Yunus Rajabiyning "Chaqar" mahalla choyxonasida tuzgan ansambli klassik maqom va mumtoz ashularimizning xalq orasida rag'batlantirishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shu jumladan yana ko'plab ansambllar xalqqa faol xizmatda bo'lganlar va bu ansambllar faoliyati zamonaviy ijrochilik san'atida an'alarimizni meros qilishda muhim omil hisoblangan.

Ansambllar repertuarlarini "Azim Daryo", "Gulbaxor", "Dilxiroj", "Dutor bayoti", "Jonon", "Ilg'or", "Rok Qashqarcha", "Samoyi Dugoh", "Tanovar", "Chaman Yalla", "Cho'li Iroq", "O'zgancha", "Qalabandi ufori", "Hanuz" kabi ashula va raqs kuylardan o'rin olgan. Keyinchalik cholg'ularni rekonstruksiya qilish va takomillashtirish tufayli ansambl ijrosining samarasi yanada oshdi. Cholg'ular oilasi paydo bo'ldi, ansambl turlari kengayib, katta unison ansambllar va orkestrlar tuzildi. Shu yo'sindagi cholg'ularning takomillashishi yangi yo'nalishdagi cholg'ular (chang, dator, tambur) maktabining shakllanishi o'ziga xos milliy cholg'u ansambllarini tuzish imkoniyatini yaratdi.

M.Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasi (hozirda O'zbekiston davlat konservatoriyasi) "Xalq cholg'ulari" kafedra qoshida O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor, ustoz sozanda Ahmad Odilov tashabbusi bilan 1969-yilda "Changchilar ansambli" tashkil qilingan bu ansambil Toshkent davlat talaba-sozandalaridan iborat 1-professional ijodiy jamoa sifatida o'z musiqiy ijrochilik faoliyatini boshlaydi va Respublikamiz madaniy ma'rifiy hayotida muhim o'rin egalladi. Ansambl tarkibini o'zbek xalq cholg'ulari fakultetining 20 nafar changchi talabalari egallagan: Fazilatxon Shukurova, Tilash Xo'jamberdiyev, Temir Mahmudov, Marfuaxon Hamidova (ashula), Ubaydulla Karimov, Toxir Sobirov, Abdusalom Mutalov, Ibrohim Xolbekov, Soraxon Bozorova, Abdurahim Ismatullayev, Ne'matjon Abdullayev, Nodirjon, Isamuddinov, Islom Rajabov, Tursunali Xudoynazarov, Mahamatjon Mahkamboyev, Qutbiddin Obidxo'jayev, Maxsudaxon Muradullayeva, Baxtiyor Yo'ldoshev (doira), O'tkir Oripov, Sultonxo'ja Ma'rifxo'jayev, Rahimjon Shermatov(dutor-bas va kontrabas). Ansambl ijro repertuarlari asosini jahonning mashxur kompozitorlari, o'zbek musiqiy me'rosi hamda qardosh xalqlar musiqiy namunalari tashkil etgan.



"Changchilar ansambli" konsert-ko'rsatuvlarida ansambl ijro dasturi asosan quyidagi kuylarni mujassam ijro etgan: "Mushkiloti Dugoh", "Mushkiloti Dugoh mo'gulchasi va uforisi", "Ajam Taronalari", "Munojot Segoh", "Ufori Segoh", "Muhammasi Mavlon",



"Nasrulloi cho'li Iroq", "Gulbaxor va Tanovar", "Nasri Segoh, Ufori nasri Segoh", "Samoiiy Dugoh" kabi o'zbek xalq kuylari, S.Yudakovning "Qirg'iziston paxtakorlariga", M.Ashrafiyning "So'zsiz qo'shig'i", M.Burxonovning "Bahor qo'shig'i", Hamid Rahimovning "Romans" asarlari. Ansamblda chang (pikkolo) bilan birga alt va bas changchilarining o'rin olganligi umumiy talqinning jozibasi turfa ohanglar uyg'unligi bilan boyidi. Ansambl tashabbuskori A.Odilov changchilar ansambli tuzilishi davrini eslab, quyidagicha ta'rif berganlar:

"Chang cholg'usi ko'p torli, tovush so'ndirg'ich maxanizmi o'rnatilgan murakkab soz sifatida takomillashdi, yangilandi. Odatda chang ijrochiligi san'ati ham sozandadan yuksak eshitish qobiliyatiga, chuqur musiqiy-nazariy bilimga, kerakli ijrochilik mahoratiga ega bo'lishni taqozo etadi. Sozandalar cholg'uda tovush chiqarish yo'llarini, ijrochilik uslublarini – benuqson, mukammal o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Ko'rsatilgan amaliy talablarga rioya qilgan holdagina, ansambl sozandalari unumli ijodiy natijalarga erishishlari mumkin". Ustozimizning ijodiy qarashlari, o'ziga xos uslublari ansambl ishtirokchilarida o'z kasbiga sodiqlik, ma'suliyat va muhabbat kabi his tuyg'ularini yanada oshishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan bo'lsa kerak, ansambl muvaffaqiyatli natijalarga erishib, o'zbek xalqining an'anaviy kuy-ohanglarini targ'ib etgan, milliy madaniy ruhni yanada yuksaltirgan, nafaqat mumtoz balki jahon durdona asarlarini ham ijro etishib tinglovchilar qalbida musiqiy estetik didni yanada oshirgan hamda tomoshabinlar tomonidan tarannum etilgan o'z san'atlarini yorqin namoyish etishgan. O'tgan asr mobaynida changchilar ansambli Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlarida o'tkazilgan o'zbek adabiyoti va san'ati kunlari, dekadalar doirasida o'tkazilgan konsert chiqishlarida faol ishtiroki ko'plab tomoshabinlar tomonidan olqishlarga sazovor bo'lishgan. Xususan: Moskva (1970), Armaniston (1970), Moskva (1977), Vyetnam (1986), Ozarbayjon (1979), Tojikiston (1981), Ukraina (1987). Ijodiy faoliyatlari davomida turli xil gastrol safarlarida, katta-katta konsert-chiqishlarida faol ishtirok etishgan, madaniy omma oldida olqishlarga sazovor bo'lishgan. Ansamblning ijodiy faoliyati ko'plab gazeta, jurnallarda ijobiy izoh etilgan, oynayi jahon ko'rsatuvlarida namoyish etilishi esa madaniy shaklda yoritilishiga turtki bo'lgan.



"Changchilar ansambli" milliy changchilar ansamblimiz yarim asrlik ijodiy faoliyati davomida ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishgan. Ansamblning bu xizmatlari o'zbek



milliy san'atimizning taraqqiyoti yo'lida hali hanuzgacha o'zining beqiyos hissasini qo'shib kelishmoqda

Qisqa tanaffuslardan so'ng 2015-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ulari ijrochilik kafedrasida dotsenti, Turon fanlar akademiyasi faxriy professori taniqli changchi ustoz sozanda Axadjon Mamadaliyev tashabbuslari bilan changchilar ansambli qaytadan tiklanib, xozirda o'z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ustoz Axadjon Mamadaliyev iqtidorli yosh changchilarga ansamblda ijro etish sir-asrorlarini o'rgatib kelmoqdalar. Fortepianoda esa mohir sozanda, Respublika tanlovlari g'olibi Larisa Abdualyamova jo'rnavezlik qilib, ansambl faoliyati rivoji uchun o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Ansamblning ijodiy faoliyati tahsinga loyiq. Har yili reja asosida o'tkaziladigan sinf va turli konsertlarda tinglovchilar ansamblning ijrosidan bahramand bo'lib kelishmoqda.



Ansamblga xalqning sevimli ustoz san'atkorlari yakkaxon sifatida o'z chiqishlari bilan qatnashib tinglovchilar tomonidan yuksak baholanmoqdalar. Bundan tashqari ansambl ijrosidagi asarlar O'zbekiston davlat konservatoriyasi ovoz yozish studiyasida



hamda davlat studiyasida yozilib, "Navo" hamda "Madaniyat va Ma'rifat" kanallarida efirga uzatilib kelinmoqda. Ansambl ijro dasturlari o'zbek xalq va mumtoz musiqasi, o'zbek hamda jahon kompozitorlarining asarlarini o'z ichiga olgan. Ansambl ijro dasturi ko'lamini boyitish maqsadida iste'dodli kompozitorlardan O.Abdullayeva, Sh.Sobirov, Q.Nazarov, A.Mansurovlar o'zlarining yangi ijod namunalari taqdim etishmoqda.

Ansambl repertuari Shashmaqom durdonalari, o'zbek xalq va mumtoz musiqasi namunalari shuningdek o'zbek hamda jahon kompozitorlarining asarlari bilan yana takomillashtirilib boy va mazmun tus oldi. Jumladan A.Geray "Baxchakurd", A.Gevorgyan "Mening Yerevanim", M.Mirzayev "Bahor valsi", P.Chaykovskiy "Vengercha raqs".

Changchilar ansambli bugungi kunda ham o'ziga xos ijodiy chiqishlari bilan san'at ixlosmandlari qalbidan munosib o'rin egallab, doimo iliq qarshi olinmoqda. Xususan O'zbekiston televideniyesi "Navo" kanalining "Javohir" musiqiy ko'rsatuvlarida ishtirok etishdi. Ijro dasturlari: F.Sodiqov "Humor", o'zbek xalq kuyi "Rohat", M.Xarratov "Yoshlik valsi", o'zbek xalq kuyi "Farg'onacha jonon", Q.Nazirov musiqasi Abdulla Oripov so'zi "Ishqingda men borman", M.Mirzayev musiqasi Sobir Abdulla so'zi "Parvoz etib ket" kabi asarlarini misol keltirishimiz mumkin.



2025-yil 4-mart kuni O'zbekiston Davlat konservatoriyasi organ zalida "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasida dotsenti Turon fanlar akademiyasi faxriy professori Axadjon Mamadaliyev tashabbusi bilan "Changchilar ansambli" hamda san'atshunoslik fanlari doktori, professor Marfua Hamidova hamkorligidagi konsert dasturi ham tinglovchilar e'tirofiga sazovor bo'ldi. Shuni aytib o'tish joizki, ustoz Marfua Hamidova "Changchilar ansambli" tuzilgan dastlabki yillaridanoq yakkanavoz xonanda sifatida ko'plab konsert dasturlarida qatnashgan, tinglovchilar ko'nglidan joy olib ulgurgan. Changchilar ansambli hamda M.Hamidova ijrosida H.Rahimovning "Bedana", U.Xojibekovning "Gulchehraning nolasi", S.Yudakovning "Dugonalar", "Kuylama



Sohibjamol" musiqiy asarlari va changchilar ansambli ijrosidagi o'zbek xalq kuylaridan "Rohat", N.Norxo'jayevning "Hayol", A.Pyassolaning "Unutilish", F.Sodiqovning "Humor", M.Xarratovning "Vals", T.Qurbonovning "Sevinch" kuylari tomoshabinlarga juda manzur bo'ldi.

Changchilar ansambli o'zining yuksak mahorati, milliy musiqa san'atiga sadoqati va ijodiy izlanishlari bilan nafaqat respublikamizda, balki xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan jamoalardan biridir. Ansambl ijrosida o'zbek xalq va mumtoz musiqasining betakror ohanglari, shuningdek, zamonaviy kompozitorlar asarlari o'ziga xos talqinda yangraydi. "Changchilar ansambli"ning ijodiy faoliyati, konsert dasturlari va targ'ibot ishlari yosh avlodni milliy musiqaga mehr uyg'otishda, madaniy merosimizni asrab avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Changchilar ansambli bugungi kunda ham o'zining yangidan-yangi izlanishlari va san'atga fidoyiligi bilan madaniy hayotimizda munosib o'rin egallab kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Lutfullayev "Changchilar ansambli". O'quv- qo'llanma. Toshkent. 2003 yil;
2. A.Mamadaliyev "Ansambl sinfi". O'quv- qo'llanma. Toshkent. 2020 yil;
3. Zulxorbek Turapov "Changchilar ansambli ijodiy faoliyatiga bir nazar" maqolasi